

MUSTAQILLIK YILLARI O‘ZBEKISTONDA KUTUBXONALAR FAOLIYATINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Abduraxmonova Nurxon Axmadjonovna
Qo‘qon shahar 6-maktab ma‘naviy-marifiy ishlar
bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida respublika kutubxonalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari mustahkamlanib borgani hamda qabul qilingan qaror va farmonlarning amaldagi ijrosi natijasida soha faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgani yoritilgan.

Kalit so‘zlar. axborot, kutubxona, kitob, milliy, madaniyat, markaziy, qaror, farmon, qonun.

Kirish: Ma‘lumki, O‘zbekiston qadimdan o‘zining boy tarixi hamda madaniyatiga ega bo‘lib kelgan davlatlardan biri hisoblanadi. Milliy tariximiz va madaniyatimizning bizgacha yetib kelishida turli xil madaniy merosimiz va qolaversa, tarixiy alohida qimmatga ega bo‘lgan nodir nashrlar muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ushbu tarixiy manbalarni saqlash hamda uni kelajak avlodga borligicha yetkazib berishda kutubxonalar alohida o‘rin egallaydi. Shu sababdan respublikadagi mavjud kutubxonalar faoliyatini ilmiy asosda o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” 2017 yil 12 yanvardagi F-4789-son farmoyishi va “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017 yil 13 sentabrdagi PQ-3271-son farmoyishi [1] respublikadagi kutubxonalar faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan harakatlanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillari respublikada kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish, uning infratuzilmasini yaxshilash, aholiga xizmat ko‘rsatish sifat

darajasini oshirish bo‘yicha hukumat tomonidan olib borilgan chora-tadbirlarga qaramasdan sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmaganligini ko‘rish mumkin. Chunki respublikadagi markaziy axborot-kutubxonalar, viloyat, shahar va tuman kutubxonalarida bir talay o‘ziga xos muammolar mavjud edi. Bunga sabab soha faoliyatini takomillashtirishga oid hukumat qarorlarining amaldagi ijrosi to‘laligicha amalga oshirilmaganligi deyish mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi hay‘atining “Kutubxona jamg‘armalarini tashkil etish va kutubxonachi kadrlar to‘g‘risida”gi 1992 yil 22 dekabrda 9-sonli qarorini bajarish borasida bir qator ishlar olib borilsa-da, uning moddiy-texnika bazasining mukammal emasligi, oddiy ish sharoitining yetarli emasligi saqlanib qolgan edi [2].

Ammo mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan respublika kutubxonalari o‘zining faoliyatida dastlabki yillarga nisbatan ijobiy natijalarga erisha oldi. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Davlat kutubxonasi bo‘limlarida kitobxonlarga xizmat ko‘rsatishning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha 1992 yildagi 1613048 tadan 1998 yilga kelib 1848428 taga yetganligini ko‘rish mumkin [3]. Bu ko‘rsatkich 6 yil mobaynida bor-yo‘g‘i 1,5 % ga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, mavjud holatdan kelib chiqib, kamayish holati kuzatilmaganligini ijobiy holat deyish mumkin.

Ushbu qarorning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar qoniqarli darajada bo‘lmaganligi sababli, 2006 yilga kelib sohani rivojlantirish yuzasidan yangi chora-tadbirlar ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta‘minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi 2006 yil 20 iyundagi PQ-381-sonli Qarori [4] respublika kutubxonalari faoliyatida ijobiy siljishlarga yo‘l ochganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, qarorga asosan axborot-resurs markazlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot-kutubxona markazlari tashkil etildi [5].

Viloyatlarda ilmiy va ko‘p tarmoqli kutubxonalar tashkil etilib, ularga alohida nomlar berildi. Bundan tashqari, respublika markaziy kutubxonasi xodimlari tomonidan turli tadbirlarning tayyorlanishi kutubxonalar faoliyatini yanada jonlantirishga turtki bo‘ldi. Xususan, O‘zbekiston Mustaqilligi kuniga

bag‘ishlangan “Or-nomusimiz va qadr-qimmatimiz”, “Har go‘shasi obod yurt”, “Istiqlol nuriga chulg‘angan diyor”, Bosh Qomusimiz qabul qilingan kunga bag‘ishlangan “Erk va tinchlik qomusi”, “Konstitutsiya – qonunlar kaliti”, “Qonun ustuvorligining huquqiy kafolati”, “Qadriyatlarimiz qomusi”, Giyohvandlikka qarshi kurash kunida “Ixtiyoriy illat iskanjasida”, “Sotib olingan og‘u”, “Qabohat ildizi”, “Millat tanlamas illat”, “Tubsiz jarlikka qadam qo‘ymang” [6] va boshqa mavzularda tadbirlar tashkil qilinishi ham axborot-kutubxona markazining Milliy dasturini hayotga keng joriy qilish yo‘lidagi sa’y-harakatlaridan hisoblanadi.

Kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2002 yil 12 apreldagi 123-son Qarori ishlab chiqildi [7]. Mazkur Qarorda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish hamda kutubxonachilik ishlarini rivojlantirish konsepsiyasini va dasturini ishlab chiqish hamda uni amalga tatbiq etish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan. Jumladan:

- ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar, respublikada kutubxonachilik ishlarini avtomatlashtirish va axborot-kutubxona tarmog‘ini yaratish;
- kitob xarid qilish va xalqaro kitob almashish, shuningdek yangi xorijiy kitoblarni sotib olish yo‘li bilan xorijiy hujjatlar fondini shakllantirish;
- avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tarmog‘ini va elektron katalogni zarur darajada saqlash, jahon axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish uchun kutubxonani zamonaviy kompyuterlar va maxsus texnika vositalari bilan jihozlash;
- bir qancha kutubxonalarni tashkil etish bo‘yicha imkoniyatlar yaratish hamda ularni amalga oshirish uchun vazifalar va ko‘rsatmalar berilgan [8].

Yaratilgan huquqiy mexanizmlar va erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan, xalqaro mezonlarga javob beradigan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmatlar ko‘rsatilishini ta‘minlash maqsadida axborot-kutubxona ishidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solib

boruvchi me‘yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinishi davr taqozosi edi. Shu boisdan 2011 yil 13 aprel kuni “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi [9].

Qonunning qabul qilinishi bilan axborot-kutubxona ishi sohasida davlat siyosatini belgilash va axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini davlat tomonidan boshqarish mexanizmi yaratildi. Shuningdek, qonunning asosiy maqsadi axborot-kutubxona faoliyatini amalga oshirish va rivojlantirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, fuqarolarning axborot-kutubxona muassasalarida saqlanayotgan axborotlardan erkin foydalanishga bo‘lgan huquqlari kafolatlarini ta‘minlashdan iborat ekanligi bilan mamlakatni modernizatsiya qilish, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda asosiy omillardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012 yil 20 martdagi “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasini – axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1729-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 4 apreldagi 98-son qarorlaridan [10] kelib chiqib, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi respublikada milliy va jahon madaniyatini, fan va ta‘limni rivojlantirish manfaatlari yo‘lida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etib kelmoqda.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish orqali aholiga, ayniqsa yoshlarga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatish, ularning intellektual salohiyatini, bilimni, ma‘naviy-axloqiy va madaniy ehtiyojlarini to‘liq qondirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har bir sohaning rivojlanishi, takomillashuvi va jamiyatdagi o‘rni hamda ahamiyatining ortib borishi, albatta, uning huquqiy asoslari bilan belgilanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi kutubxonalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarining mustahkamlanib borishi uning faoliyatiga o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatib bordi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda

soha faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlar uning jamiyatdagi dolzarblik darajasi yuqori ekanligini belgilab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha Komissiya tuzish to‘g‘risida. 12.01.2017. F-4789.
<https://nrm.uz/contentf?doc=488722>
2. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining joriy arxivi. 1993 yil. Yillik hisobot materiallari. 1-varaq.
3. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining joriy arxivi. 1993 yil, 1998 yil. Yillik hisobot materiallari. 41-varaq, 34-varaq.
4. Axborot-kutubxona faoliyatiga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2020. – B. 19.
5. Axborot-kutubxona faoliyatiga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2020. – B. 20.
6. Mamajonova O. Huquqiy axborotlar kolleksiyasi. // *Kutubxona.Uz*. – 2015. – №3. – B. 42–43.
7. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to‘g‘risida. 12.04.2002. VMQ-123. <http://lex.uz/m/acts/261619>
8. Axborot-kutubxona faoliyatiga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2020. – B. 29.
9. Karimova M. Axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining huquqiy mexanizmlari va dolzarb masalalari. // *Kutubxona.Uz*. – 2015. – №2. – B. 3.
10. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi – axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 20.03.2012. PQ-1729. <http://lex.uz/docs/1983104>.